



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 2

2026

TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM OLIISH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA METAKOGNITIV KOMPONENTNING TAYM MENEJMENT TEXNOLOGIYASI BILAN BOG'LIQLIGI

Tillabayeva Guljahon Ilhomjon qizi

Farg'ona davlat texnika universiteti, tayanch doktorant

Annotatsiya

Mazkur maqolada talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish jarayonida metakognitiv komponentning o'rni hamda uning taym menejment texnologiyalari bilan o'zaro aloqadorligi tahlil etilgan. Metakognitiv komponent-o'z fikrlash faoliyatini kuzatish, baholash va tartibga solish qobiliyatlari-talabalarni o'z-o'zini boshqarishga, o'quv faoliyatini ongli rejalashtirishga va natijadorlikni oshirishga xizmat qiladi. Maqolada metakognitsiya va taym menejment texnologiyasi nazariy asoslar nuqtai nazaridan o'rganilib, ularning integratsiyasi orqali talabalarning mustaqil ta'lim olish samaradorligini oshirish bo'yicha metodik tavsiyalar ilgari surilgan. Tadqiqot natijalari metakognitiv yondashuv asosida tayyorlangan vaqtni boshqarish strategiyalarining talabalarda mustaqil ta'limga nisbatan mas'uliyat, motivatsiya va o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: mustaqil ta'lim, metakognitiv komponent, taym menejment, o'zini boshqarish, rejalashtirish va baholash.

ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕТАКОГНИТИВНОГО КОМПОНЕНТА С ТЕХНОЛОГИЕЙ ТАЙМ-МЕНЕДЖМЕНТА В РАЗВИТИИ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ К САМОСТОЯТЕЛЬНОМУ ОБУЧЕНИЮ

Тиллабоева Гулжахон Илхомжон кизи

Ферганский государственный технический университет, базовый докторант

Аннотация

В настоящей статье проанализированы роль метакогнитивного компонента в процессе формирования и развития компетентности студентов к самостоятельному обучению, а также его взаимосвязь с технологиями тайм-менеджмента. Метакогнитивный компонент — это способности к наблюдению, оценке и регулированию собственного мыслительного процесса, которые способствуют развитию у студентов навыков самоуправления, осознанного планирования учебной деятельности и повышения её эффективности. В статье рассмотрены теоретические основы метакогниции и технологий тайм-менеджмента, а также предложены методические рекомендации по повышению эффективности самостоятельного обучения за счёт их интеграции. Результаты исследования показывают, что стратегии управления временем, основанные на метакогнитивном подходе, оказывают значительное влияние на развитие у студентов ответственности, мотивации и навыков самооценки в отношении самостоятельного обучения.

Ключевые слова: самостоятельное обучение, метакогнитивный компонент, тайм-менеджмент, самоуправление, планирование, оценка.

THE INTERRELATION OF THE METACOGNITIVE COMPONENT AND TIME MANAGEMENT TECHNOLOGY IN DEVELOPING STUDENTS' INDEPENDENT

LEARNING COMPETENCE

Tillabayeva Guljahon Ilhomjon qizi

Fergana State Technical University, Doctoral Researcher

Abstract

This article analyzes the role of the metacognitive component in the formation and development of students' competence for independent learning, as well as its interrelation with time management technologies. The metacognitive component—referring to the ability to monitor, evaluate, and regulate one's own thinking processes—supports students in self-regulation, conscious planning of their learning activities, and enhancing learning outcomes. The article examines the theoretical foundations of metacognition and time management technologies and offers methodological recommendations for improving the effectiveness of independent learning through their integration. The research findings demonstrate that time management strategies developed based on the metacognitive approach have a significant impact on enhancing students' sense of responsibility, motivation, and self-assessment skills in relation to independent learning.

Keywords: independent learning, metacognitive component, time management, self-regulation, planning, evaluation.

Muxtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev “Yoshlarimiz mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo’lib, dunyo miqiyosida o’z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo’sh kelmaydigan insonlar bo’lib kamol topishi, baxtli bo’lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”, degan fikrlari ham mustaqil O’zbekistonimiz yoshlarini erkin fikrlashni tarkib toptirishga qaratilayotgani ham e’tibordan holi emas. Shunday ekan biz o’qituvchilar hozirgi yangi davr talabi va zamonaviy yondashuvlar asosida darslarni tashkil qilishimiz oldimizdagi yuksak vazifalardan biridir. Ushbu muammoli vaziyatdan chiqishning yagona yo’li - oliy ta’limda yangicha, ya’ni mustaqil ta’lim olish yondashuvni joriy etishdir.

“Ta’lim to’g’risida”gi qonunda mustaqil fikrlaydigan, yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash tizimi aks ettirilgan. Shuningdek, mazkur muammolarni tizimli hal qilish borasida Respublikada huquqiy me’yoriy asoslar yaratildi. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PF-5847-sonli Farmoni, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-2909-sonli qarorlari orqali kadrlar tayyorlashdagi mustaqil ta’limni o’quv jarayonida uning ahamiyatini bilishimiz mumkin. [2]

B.R.Muqimov “Mustaqil ish jarayonida talabalarning didaktik kompetensiyasini interfaol ta’lim metodlari asosida takomillashtirishning pedagogik va didaktik shart sharoitlari” nomli maqolasida mustaqil ish uchun mualliflik ta’rifini beradi. Ya’ni mustaqil ish - bu oliy ta’lim muassasalarida fanlardan shunday bilim olish turi bo’lib, bunda talabalarning o’z oldilariga interfaol ta’lim metodlari asosida u yoki bu vazifalarni, maqsadlarni ongli ravishda qo’yishi, o’z faoliyatini rejalashtirish va uni amalga oshirishi hamda o’zini baholay olish qobiliyatlari bilan aniqlanishidir.

Olima **Laura A.Schraw** tomonidan olib borilgan tadqiqot talabalarda metakognitiv strategiyalarni qo’llab-quvvatlash (scaffolding) va mustaqil ta’lim olish o’rtasidagi bog’liqlikni o’rganadi. O’qituvchi tomonidan metakognitiv strategiyalarni qo’llab-quvvatlash talabalarning matnni tushunishi, mavzuni anglash va o’z fikrini ifodalashda muhim rol egallashi aniqlangan.

Narges Sadeghi va hamkasblari tomonidan yozilgan “Exploring self-directed learning readiness and related factors: The role of time management skills in nursing students” nomli maqolada mustaqil ta’lim kompetentligini rivojlantirish modelida vaqtni boshqarish ko’nikmalari asosiy tarkibiy qism sifatida ko’rsatilgan. Model asosiy g’oyasi – talabanning mustaqil ta’limga tayyorligi (Self-Directed Learning Readiness) darajasi bir nechta omillarga bog’liq bo’lib, ulardan eng muhimlaridan biri – vaqtni boshqarish ko’nikmalari ekanligini ta’kidlagan.

Mustaqil ish jarayoni talabalarning o’quv-tarbiya jarayonida mustaqil faoliyatini auditoriyada, auditoriyadan tashqari va mustaqil ravishda tashkil etishga yo’naltirilgan jarayondir. Mustaqil fikr yuritishga, aqliy va ijodiy faollikka erishishga qaratilgan mashg’ulot turi mustaqil ta’lim bilan bog’liq bo’ladi. Mustaqil ta’limning asosiy masalasi ham aynan talabanning dars va darsdan so’ngi faoliyati faolligini ta’minlashga yo’naltirilgan shart-sharoit, erkin fikr va kasbiy mas’uliyatni his qilishga qaratilgan ijodiy jarayondan iborat. Ma’lumki, mustaqil ta’limni yo’lga qo’yishda nafaqat talabalarni muayyan fan bo’yicha bilim, ko’nikma va malakalarini oshirish, ularda mustaqil dunyoqarashni shakllantirish, shu bilan bir qatorda bo’lajak mutaxassis sifatida talaba shaxsida ijodiy va ilmiy tafakkurni rivojlantirish vazifasi turar ekan, ma’lum ma’noda global professionallik masalasi ham o’z tasdig’ini topmog’i lozim. Bu jarayondagi ijodiy texnologik yondashuv talabadan tezkor fikrlashni va faol harakatni talab qiladi. Chunki talabadagi faollik ijodiy faoliyatga aylangan taqdirdagina mehnatni ilmiy tashkil qilish, vaqtdan unumli foydalanish amalga oshadi. Ana shunda talaba o’z qiziqishlari asosida o’zining diqqatini muayyan ob’ektga qarata oladi. [4]

Tadqiqot metodologiyasi

Bugungi kunda ta’lim oluvchilarning mustaqil o’qish, bilim olish va o’zlashtirish faoliyatini samarali tashkil etishda metakognitiv komponent muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu komponent talabalarning fikrlash faoliyati ustidan nazorat o’rnatish, o’quv jarayonini ongli boshqarish va o’z-o’zini rivojlantirish qobiliyatlarini ifodalaydi, hamda mavjud bilimlarni chuqurlashtirish va yangi bilimlarni ongli o’zlashtirishda asosiy vosita sifatida qaraladi.

Metakognitiv komponent asosan, ikki yo’nalishda namoyon bo’ladi:

1. **Metakognitiv bilimlar** – ya’ni shaxsning o’z bilim darajasi, o’quv strategiyalari va ularning samaradorligi to’g’risidagi tushunchalari;

2. **Metakognitiv nazorat** – bilim olish jarayonini rejalashtirish, monitoring qilish, baholash va zarurat tug’ilganda strategiyani o’zgartira olish qobiliyati.

Ushbu komponent talabanning mustaqil ta’lim olish jarayonida:

- o’zining o’quv ehtiyojlarini aniqlashi,
- o’zlashtirish strategiyalarini tanlashi va tahlil qilishi,
- natijalarni baholashi va o’zini o’zi boshqarishi orqali bilim olish jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, metakognitiv komponent yuqori bo’lgan talabalar mustaqil ishlashga moyilroq bo’lib, ular ta’lim faoliyatini ongli ravishda boshqaradi, qiyinchiliklarni tezroq aniqlaydi va ularga mos strategiyalarni tanlashga qodir bo’ladi. [5]

Natijalar va ularning tahlili

XXI asrda ta’lim tizimida shaxsni o’z-o’zini boshqaruvchi sub’ekt sifatida shakllantirish muhim masalaga aylangan. Bu jarayonda metakognitiv komponentni rivojlantirish talabanning mustaqil ta’limga tayyorligini oshirishda muhim omil sifatida qaralmoqda. Xorijiy mamlakatlar tajribasi bu komponentni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish bo’yicha samarali usullarga boydir. Masalan, AQShning yetakchi universitetlarida (**Harvard, Stanford**) talabalarning metakognitiv komponentni rivojlantirish uchun **reflektiv jurnal**

yuritish, **“fikrlash ustida fikrlash”** (thinking about thinking) mashg‘ulotlari joriy etilgan. Bu mashg‘ulotlar orqali talabalar o‘z o‘quv strategiyalarini tahlil qilish, natijalarini baholash va kelgusi faoliyat uchun xulosa chiqarishni o‘rganadilar.

Buyuk Britaniya ta’lim tizimida, xususan, **Cambridge Assessment** tizimida metakognitsiya shaxsiy ta’lim trayektoriyasini qurish vositasi sifatida qaraladi. Bu yerda talabalar individual o‘quv maqsadlarini shakllantiradi, ularning bajarilishini nazorat qiladi va o‘zini o‘zi baholash orqali doimiy rivojlanishga yo‘naltiriladi.

Finlyandiya tajribasida esa metakognitiv yondashuvlar umumta’lim tizimi bosqichlaridan boshlab, oliy ta’limgacha izchil tatbiq qilinadi. O‘quvchilar va talabalar o‘z faoliyatini mustaqil rejalashtirish, o‘zini o‘zi boshqarish va refleksiya qilishga o‘rgatiladi. Bu esa ularning mustaqil ta’lim olish kompetentligini tabiiy va tizimli tarzda rivojlantiradi.

Yevropa Ittifoqining **Erasmus+** dasturi doirasida ham ko‘plab oliy o‘quv muassasalarida metakognitiv komponentni rivojlantirishga qaratilgan loyihalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, **“SELFIE for Teachers”** loyihasida o‘qituvchilar va talabalar uchun o‘zining ta’limdagi kuchli va zaif tomonlarini tahlil qilish, strategik rejalashtirish va o‘zini baholash ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha platformalar yaratilgan.

Ushbu tajribalar shuni ko‘rsatadiki, metakognitiv komponentni rivojlantirish – bu nafaqat individual o‘quv samaradorligini oshirish, balki shaxsni hayotiy faoliyatga muvaffaqiyatli yo‘naltirish vositasidir. Bu komponent mustaqil ta’lim olish kompetentligining ajralmas qismi sifatida qaralmoqda.

Metakognitiv komponentni rivojlantiruvchi metodlarning taym menejment texnologiyasi bilan bog‘liqligi

T/R	Metod nomi	Metod mazmuni	Taym menejment texnologiyasi bilan bog‘liqligi	Misollar
1	Reflektiv jurnal	Talaba har kuni o‘z o‘quv faoliyati haqida yozma fikr bildiradi	Vaqtini rejalashtirish va o‘z-o‘zini tahlil qilish orqali darsdan so‘ng vaqt ajratish ko‘nikmasi shakllanadi	“Bugun 2 soat o‘qishga ajratdim. 1-soatda nazariyani o‘rgandim, 2-soatda test ishladim. Ertaga amaliy topshiriqqa ko‘proq vaqt ajrataman.”
2	”O‘zini o‘zi baholash” (self-assessment)	Talaba o‘z bilimini baholaydi, natijalarga qarab rejalarini moslashtiradi	Baholash asosida kelgusi vaqt taqsimoti va ustuvor vazifalarni belgilashni o‘rganadi	“Bugungi testda 60% natija oldim. Endi qo‘shimcha 30 daqiqa har kuni nazariyani o‘qishga ajrataman.”

3	“Muammo asosida o‘qitish” (Problem Based Learning)	Talabalar real muammoni mustaqil hal qilishadi	Muammoni yechish uchun vazifalarni bosqichma-bosqich rejalashtirish va vaqt chegarasini belgilashni talab qiladi	“Jamoaviy loyiha: muammoni tahlil qilish – 1 kun, yechimlar ishlab chiqish – 2 kun, taqdimot – 1 kun.”
4	“Konseptual xaritalar” (concept maps)	Tushunchalar orasidagi bog‘liqlikni grafik ko‘rinishda aks ettirish	Ta’lim mazmunini rejalashtirish va tizimlashtirish orqali samarali vaqt sarflashga imkon yaratadi	“Dars mavzusi asosida kontsept xarita tuzib, asosiy tushunchalarga 10 daqiqa, tafsilotlarga 15 daqiqa ajratildi.”
5	“Fikrlashni ovoz chiqarib ifodalash” (Think-aloud strategy)	Talaba topshiriqni bajarishda o‘z fikrini ovoz chiqarib bayon qiladi	Ongli fikrlashni tezlashtirish va vaqt sarfini nazorat qilishga yordam beradi	“5 daqiqa ichida masalani qanday yechaman – ovoz chiqarib rejani aytish orqali tezroq yo‘l tanlayman.”
6	Vaqt rejasini tuzish (taym-bloking)	O‘quv topshiriqlarini vaqt bloklariga bo‘lib rejalashtirish	Har bir vazifaga aniq vaqt ajratiladi, bu metakognitiv nazoratni kuchaytiradi	“9:00–9:30 – darsni o‘qish, 9:30–10:00 – konspekt yozish, 10:00–10:30 – savollar ishlab chiqish.”
7	Strategik rejalashtirish mashg‘ulotlari	Maqsad qo‘yish, yo‘l xaritasini tuzish va natijani baholash	O‘quv maqsadlarini vaqt bo‘yicha bo‘lish, ustuvorlik belgilash orqali vaqtni ongli boshqarish shakllanadi	“Haftalik reja: dushanba – nazariya, seshanba – testlar, chorshanba – loyiha; har biri 1 soatdan.”

Xulosa

Ta'lim sharoitida taym menejment texnologiyasi va metakognitiv komponentdan foydalanish orqali talabalar o'z vaqtlaridan oqilona foydalanish, har bir rejalashtirilgan maqsad va vazifalar uchun yetarlicha vaqt ajratish, hamda belgilangan topshiriqlarni o'z vaqtida tugallash ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Esda tutish kerak bo'lgan asosiy narsa shundaki, vaqtni boshqarishdagi asosiy vazifa barcha ma'lumotlarni tartibga solish va barcha mumkin bo'lgan ishlarni sanab o'tmaslik, balki o'z vazifalaringizni ustuvorliklarini hisobga olgan holda amalga oshirishning eng oqilona usulini topishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni / "Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi", 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli qarori. Manba: www.gov.uz
3. G.Tillabayeva "Taym-menejment texnologiyasini rivojlantirish bosqichlari". Mugallim uzluksiz bilimderi ilmiy-metodologik jurnal. Nukus-2024 3-son, 137-140 b.
4. O.Shomurodov. Oliy ta'lim tizimida mustaqil ta'limni tashkil etishning metodikasi. Educational Research in Universal Sciences, volume 2, issue 14| 202, (941-947 b).
5. G.Tillabayeva "Maxsus pedagogika va maktabgacha ta'limning dolzarb masalalari: muammo, yechimlar va rivojlanish istiqbollari " xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. Farg'ona-2024, 119-121b.
6. Covey, S. R. The 7 Habits of Highly Effective People: Powerful Lessons in Personal Change. Free Press.1989